

TURIZM VA MEHMONXONA XO'JALIGIDA INNOVATSION XIZMATLAR: O'ZBEKISTON MISOLIDA REAL HOLAT VA ISTIQBOLLAR

Xojaqulova Nargiza To'ychi Qizi

Fan va Texnologiyalar universiteti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d., (PhD), dots. v.b., R. Rasulov

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18296685>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston turizm va mehmonxona xo'jaligi sohasida innovatsion xizmatlarning joriy etilishi, ularning samaradorligi va amaliy qo'llanishi tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar, jumladan, smart-turizm, onlayn bronlash tizimlari, sun'iy intellekt xizmatlari, AR/VR virtual turlar, 3D modellashtirish va raqamli platformalarning turistik xizmatlar sifatiga ta'siri yoritilgan.

Kalit So'zlar. Turizm, Mehmonxona Xo'jaligi, Innovatsiyalar, Smart-turizm, raqamli turizm, AR/VR texnologiyalari, virtual tur, innovatsion xizmatlar, onlayn bronlash, sun'iy intellekt, e-visa, raqamlashtirish, O'zbekiston turizmi, 3D modellashtirish, raqamli infratuzilma.

Kirish. Turizm bugungi kunda dunyo iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, ko'plab davlatlarda iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish va xalqaro imijni mustahkamlashda muhim omilga aylangan. Shunday sharoitda turizm xizmatlarini zamonaviy, qulay va tezkor shaklda taklif etish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi sayyohlar barcha jarayonlarni onlayn bron qilish, raqamli xizmatlardan foydalanish va innovatsion yechimlar orqali safarini soddalashtirishni afzal ko'rmoqda.

Ayniqsa, smart texnologiyalar, onlayn bronlash servislari, AR/VR turlar, sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar turizmga yangi imkoniyatlar ochib, xizmat sifati va sayyoh tajribasini sezilarli darajada yaxshilamoqda. Bu texnologiyalar nafaqat xizmat ko'rsatish jarayonini optimallashtiradi, balki mamlakatning turistik jozibadorligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Ilmiy manbalar tahlili. O'zbekiston sharoitida ham oxirgi yillarda turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashmoqda. Jumladan:

- E-visa va E-permit tizimlarining joriy etilishi;
- Uzbekistan.travel, E-museum, my.gov.uz kabi raqamli platformalarning faol ishlay boshlashi;
- mehmonxonalarda onlayn bronlash, raqamli to'lov, self-check-in xizmatlarining kengayishi;
- Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarda tarixiy obidalarni 3D formatda ko'rish imkoniyatlarining yaratilishi.

Bularning barchasi turizmga innovatsion xizmatlar bosqichma-bosqich joriy etilayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, ayrim mehmonxonalar va sayyohlik kompaniyalari VR tur xizmatlarini sinov tariqasida yo'lga qo'yib, sayyohlarga obyektlar bilan oldindan tanishish imkoniyatini bermoqda. Bu jarayon turizmning to'liq raqamlashtirilishiga kuchli turtki bo'lmoqda.

Narzullaeva U. va Abzalova N. larning[1] maqolasida O'zbekiston sharoitida smart-turizm va raqamli xizmatlarni rivojlantirish, Uzbekistan.travel, E-museum va boshqa platformalar orqali sayyohlar tajribasini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Mening fikrimcha Raqamli platformalar va smart-turizm xizmatlari sayyohlarning tajribasini sezilarli darajada

yaxshilaydi, sayohatni rejalashtirish va ma'lumot olishni tezlashtiradi. Lekin barcha hududlarda internet va texnologik infratuzilma yetarli emas; kichik shaharlarda va chekka hududlarda bu xizmatlar cheklangan, bu raqamli tengsizlikni keltirib chiqaradi. Yechim sifatida Davlat va xususiy sektor hamkorligida chekka hududlarda internet infratuzilmasini kengaytirish, mobil ilovalar va offline rejimdagi xizmatlarni ishlab chiqishni olish mumkin.

Ismailova S. ning [2] maqolasida digital tourism va virtualizatsiya tendensiyalari, VR/3D turlar orqali madaniy merosni taqdim etish va sayyohlar sonini oshirish tahlil qilingan. Fikrimcha VR va 3D texnologiyalari orqali turistlarga interaktiv va jozibador tajriba yaratish mumkin, madaniy merosni keng auditoriyaga yetkazadi. Lekin Virtual ekskursiya haqiqiy sayohat va insoniy tajribani to'la almashtira olmaydi, shuningdek barcha turistlar texnologiyadan foydalanishni afzal ko'rmaydi. Shu sababli VR xizmatlarini haqiqiy safarga tayyorgarlik vositasi sifatida ishlatish; real va virtual tajribani kombinatsiyalash orqali interaktivlikni saqlash muammoning yechimi bo'lishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin.

Z. Abrievning [3] maqolasida AR/VR, IoT va mobil ilovalar orqali O'zbekiston turizmida smart-turizmni rivojlantirish, mehmonxona va sayyohlik xizmatlarini integratsiyalashgan tizimda taqdim etish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek integratsiyalashgan raqamli xizmatlar sayyohlik sohasini zamonaviylashtiradi, xizmat sifatini oshiradi va mamlakat brendini global bozor bilan raqobatbardosh qiladi. Ammo kichik mehmonxonalar va oilaviy guest-houselar uchun AR/VR va boshqa texnologiyalarni joriy etish xarajat talab qiladi, bu esa raqamli xizmatlar kengayishiga to'sqinlik qiladi. Bu muammoga yechim tariqasida Davlat subsidiyalari, grantlar va startap dasturlari orqali kichik bizneslarni texnologiyalar bilan ta'minlash va treninglar o'tkazishni asos qilib olishimiz mumkin.

O. Xaitovning [4] tadqiqotida turizm xizmatlari eksporti, onlayn bronlash, elektron viza, transport-logistika va davlat-xususiy hamkorlik orqali O'zbekistonda innovatsion turizmni rivojlantirish yo'llari tahlil qilingan. Shaxsiy fikrimcha raqamli platformalar va onlayn tizimlar sayohatni soddalashtiradi, mehmonxona va turoperatorlar xizmatlarini yaxshilaydi, shuningdek, turizmni iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga yordam beradi lekin raqamli tizimlar va xizmatlar doimiy texnik xizmat va moliyaviy resurs talab qiladi va kichik bizneslar buni amalga oshira olmasligi mumkin. Davlat grantlari, subsidiyalar va texnologik treninglar orqali kichik va o'rta bizneslarni qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani barqaror rivojlantirish.

M. Sobirjonovning [5] maqolasida esa smart-turizm va raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, virtual ekskursiyalar va avtomatlashtirilgan xizmatlar yordamida turizmni rivojlantirish dolzarbligi haqida yozgan, raqamli texnologiyalar va smart xizmatlar sayyohlik sohasining samaradorligini oshiradi, xizmat sifatini yaxshilaydi va mamlakatni global turizm bozorida yanada raqobatbardosh qiladi. Biroq qarshi fikr sifatida "Digital divide" – raqamli xizmatlardan barcha hudud va aholilar bir xilda foydalanolmaydi; texnologiyalar insoniy tajribani to'la almashtira olmasligini ko'rishimiz mumkin. Yechim tariqasida esa raqamli xizmatlarni chekka hududlar va kichik bizneslar uchun moslashtirish, offline va interaktiv variantlarini ishlab chiqish; xizmat va texnologiyani kombinatsiyalash ancha yaxshi samara berishi mumkin.

Xulosa. O'zbekiston turizm sohasida innovatsion xizmatlarning jadal joriy etilayotgani sohaning raqobatbardoshligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va sayyohlar uchun yanada qulay muhit yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. E-visa tizimi, onlayn bronlash platformalari, raqamli to'lovlar, AR/VR texnologiyalar asosidagi virtual turlar, sun'iy

intellekt yordamchi xizmatlari va 3D modellashtirilgan tarixiy obyektlar — bularning barchasi milliy turizmning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirmoqda. Ilmiy manbalarda keltirilgan fikrlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar sayohatni rejalashtirishni osonlashtiradi, turistlarning tajribasini boyitadi va O'zbekistonning turistik salohiyatini global miqyosda targ'ib qilish imkonini kengaytiradi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining sustligi, kichik mehmonxonalar uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish xarajatlarning yuqoriligi, "raqamli tengsizlik" hamon mavjud ekani soha rivojiga to'sqinlik qilmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun davlat-xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, texnologik subsidiyalar ajratish, chekka hududlarda infratuzilmani yaxshilash, startup va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash zarur.

Umuman olganda, innovatsion xizmatlar turizmning kelgusidagi rivojlanishida asosiy omillardan biri bo'lib, O'zbekiston sohada raqamli yechimlarni bosqichma-bosqich kengaytirib borar ekan, mamlakatning jahon turizm bozoridagi o'rni yanada mustahkamlanishi kutilmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Narzullaeva, U., Abzalova, N. *Development of Smart Tourism in Uzbekistan*. Toshkent: International Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 2022. №4. B. 112-119.
2. Ismailova, S. *The Main Trends in the Development of Digital Tourism in Uzbekistan*. Toshkent: Science and Innovation International Scientific Journal, 2023. №2. B. 85-92.
3. Abriev, Z. *Smart tourism konsepsiyasining O'zbekistonda joriy etilishi*. Toshkent: "Turizm va Mehmondo'stlik" ilmiy jurnali, 2022. №3. B. 45-52.
4. Xaitov, O. *O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning shakllari*. Toshkent: O'zbekiston Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnali, 2021. №5. B. 67-74.
5. Sobirjonov, M. *Raqamli texnologiyalar yordamida smart turizmni rivojlantirishning dolzarbligi*. Toshkent: "Iqtisodiyot va ta'lim" ilmiy-amaliy jurnali, 2023. №1. B. 98-104.